



BETAKROR SAN'ATKOR

Xabibullaeva Mavluda Adambaevna

Urganch davlat universiteti "Musiqiy ta'lim" kafedrasi uqituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10052577>

ARTICLE INFO

Received: 24th October 2023

Accepted: 29th October 2023

Online: 30th October 2023

KEY WORDS

*Musiq, "Salom hind xalqiga!",
"Muborak", "Salom senga
Xorazmdan", "Olqish", "Aziz
Vatanim", maqom, san'at,
baxshi.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada O'zbek xalqining sevimli san'atkori
Komiljon Otaniyozov ijodi haqida ijodiy va tahliliy
munozaralar yuritilgan.*

Musiqani sevuvchi unga hayotini baxsh etgan insonlar san'at axli hofizlar, sozandalar bo'lib, ular butun tabiatni, mavjudotni sozda ifodalashadi. San'at beshumor ummon. Xorazm musiqi ijrochiligi amaliyotida o'z so'zi va sozi bilan xalq e'tiborini qozongan zabardast ustoz-san'atkorlar ko'p. Ularning nomini o'zi san'atning belgilovchi darajasini ko'rsatib beradi. Hojixon Boltaev, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Qurji ota Avazmatov, Matpano Xudoyberganov, Ro'zmat Jumaniyozovlarning ijrolari bunga yaqqol misoldir. Shular qatori Komiljon Otaniyozov ham o'z zamonasining zabardast vakili hisoblanadi.

O'zbekiston, Qoraqalpog'iston va Turkmaniston xalk artisti Komiljon Otaniyozov 1917 yilning 22 iyulida Xorazm viloyati Shovot tumanining Bo'yrachi qishlog'ida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi - Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li, onasi- Anbar momo musiqaning shaydolari, adabiyotni yaxshi biladigan shoirlikda xam muayyan amallarga ega bo'lgan insonlar bo'lgan. Xivadagi Arabxon madrasasida ta'lim olgan, fors va arab tillarini yaxshi bilgan otasi "Niyoziy" taxallusida she'rlar bitgan. Ayniqsa, musiqani juda xush ko'rgan, tanbur, dutor chalib kuy bastalash bo'yicha ham davriga mos amallarni qilgan inson bo'lgan. Onasi Anbar momo tabiatan xushfe'l inson bo'lib, musiqaning xalq yo'lidagi lapar, terma janrlariga xos qo'shikdarni juda nozik ta'b bilan ijro etgan xushchaqchaq ayol bo'lgan.

Komiljon zamonasining ustozlari Matkarim Abdurahmonov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Qurbonnazar Abdullaev (Bola baxshi)lardan musiqi sabog'ini xalq qo'shiq va doston yo'llarini ijro etishni o'rganadi.

1932 yildan Komiljon o'rta maktabni Shovotda davom ettiradi va bu maktabda musiqi bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. U Abdurkarim Abdurahmonov rahbarligidagi xavaskorlar to'garagiga qatnashadi. Maktabni bitirib ikki yillik o'qituvchilar kursini tamomlaydi va 1935 yili ona qishlog'i Bo'yrachiga qaytadi. Komiljon o'zining iste'dodini to'garak jamoasining



chiqishlarida namoyon etishga ulguradi. Uning chiroyli ovozda jozibali kuylashi tinglovchilar nazariga tusha boshlagan edi. Shu davrga kelib O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlarida kolxoz-sovxozi teatri nomi bilan badiiy havaskorlik jamoalari tuzilishi rasm bo'la boshlaydi. 1936 yili Shovotda ham san'at truppasi tashkil etiladi. Komiljon Otaniyozov o'z qishlog'idagi kontsert jamoasining mashklariga tez-tez qatnashib turadi. Tez orada bu jamoaga ishga kirib oladi. Komiljon Otaniyozovning sahnada, ya'ni teatrdagi rol o'ynashi, aktyorlik faoliyati ana shu dargoxda boshlanadi. U sahnada qo'shiq aytish bilan birga kichik-kichik rollarni ham bajara boshlaydi. Unga ilk san'at namunalari sabab bergan ustozlaridan biri Jumaloq baxshidir. Ushbu jamoada Komiljon oddiy artistdan musiqa rahbari va hatto direktori vazifasigacha ko'tariladi va sidqi dildan xalqqa xizmat qiladi. Komiljonning ijodi ana shu jamoada elga doston bo'ladi. U 1940 yildan boshlab Xiva musiqali drama teatrida ish faoliyatini davom ettiradi.

Uning repertuari shu davr san'atkorlariga xos tarzda shakllanadi. Ayniqsa, ustoz xonandalar ijro etgan qo'shiq va ashulalarni tez orada o'zlashtirib oladi. U asosan ommaviy xalq qo'shiqlari, suvoralar, "Go'ro'g'li" turkumidagi 5-6 dostonni, "Yusuf va Axmad" qissasini "Bozirgon", "Sayodxon va Hamro", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabi dostonlarni o'zlashtirib ijro etar edi. Komiljonning xalk orasida tez ko'zga ko'rinishiga ham Bola baxshidan o'rgangan "Etti yilga ketgan yorim",

"Dushimda bir bulbul ko'rdim", "Ra'noni ko'rdim", "Namasan", "Ustozingdan ayrilma" kabi doston parchalari katta ahamiyat kasb etgan.

1943 yildan boshlab Komiljon Otaniyozov Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatrida ish faoliyatini davom ettiradi. Bu dargoxda u Samandar Saroymonov, Bikajon Rahimova, Aziz Jumaniyozov, Karim Iskandarov, G'ulom Tojiev, Yusuf Jabborov kabi yoshlar, Zuhur Qobulov, Qalandar Boyjonov, Solih Devonov, Vahobjon Fayozov kabi ustoz san'atkorlar bilan birgalikda ishlay boshlaydi. Teatrdagi Komiljon Otaniyozov "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra", "Davron ota", "Nurxon" spektakllarida bosh rollarni ijro etishga muvaffaq bo'ladi.

Aynan mana shu davrdagi faoliyati uning qo'shiq ijrochiligi san'atida yangi yo'nalishni shakllanishiga sabab bo'ldi. Komiljon Otaniyozov ijro etayotgan doston namunalari, xalq qo'shiqlarini davra talabiga mos holda talqin etishga harakat qiladi. Uning improvizatorlik jihatlari nish ura boshlaydi, har bir xalq musiqasidagi asarlar ijrochilar talqinida yangi-yangi ko'rinishni ifoda etishi mukarrar. Komiljon Otaniyozovning ijodining xarakterli xususiyatlaridan biri ham shundadir. Musiqiy namunalarni jonli, ya'ni davradagi muloqoti asosida mukammallashtirib ijro etishdadir. Shu bilan birga qayd etish kerakki, bu jihatlarning faoliyatida bastakorlik jihatlari boshlanishidan darak beradi va ijodida ilk asarlar yuzaga kela boshlaydi. "Naylayin", "Na bo'ldi yorim kelmadi", "Ayrilmasin nigoridan" kabi qo'shiqlar doston namunalari xos bo'lsa, "O'tlan", "Xush qol endi", "Og'ang kelar mard bo'lib", "Xayr endi" kabi qo'shiqlar uning ilk bastakorlik ijodidan bo'lib urush mavzusi asosida yuzaga kelgan.

1947 yili mamlakatda yangi ulkan qurilishlarning barpo bo'lishi munosabati bilan juda ko'pchilik bu xayrli ishlarga safarbar etiladi. 1948 yili uning mehnatlari hukumat tomonidan munosib baholanib, o'zbek musiqa san'ati rivojiga qo'shgan hissasi uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni beriladi. Bastakorlik ijodida "Kel, yor, o'ylanma-o'ylanma", "Guldasta", "Ishqing o'tida", "Devona bo'ldim", "Kerakmas" kabi o'zining uslubiga xos yangi asarlar yaratadi.



Komiljon Otaniyozov Hojixon Boltaevdan Xorazm suvora yo'llarini kunt bilan o'rganadi. Suvoralarning asl mohiyati, ohang sirlari, Xorazmga xos bo'lgan jihatlarini ustoz yordamida anglaydi. "Chapandozi suvora", "Kajang suvora", "Xush parda suvora", "Yakparda suvora"larni o'ziga xos jihatlarini ustozdan bilib oladi.

Komiljon ustozning yana bir faoliyatini mustahkamlagan narsa, bu uning Xorazm maqomlarining bilimdoni Matpano Xudoyberganov bilan bo'lgan damlari, undan olgan saboklaridir. Matpano Xudayberganov Xorazm maqomlarining bilimdoni ekanligi barchaga ayondir. Ustozdan saboq olish Komiljon Otaniyozovning ham orzusi edi. Shu sabab Komiljon, Matpano ota tarbiyasida Xorazm maqomlarini o'zlashtira boshlaydi. Zehni o'tkir, musiqani nozik tomonlarini his eta biladigan Komiljon Otaniyozov ustozidan tez orada "Navo", "Segoh", "Rost", "Dugoh" kabi Xorazm makomlarini shakliy, tarkibiy va ijroviy jihatlarini kunt bilan o'zlashtirib oladi.

1949 yildan Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama va komediya teatri koshidagi ashula va raqs ansambliga badiiy rahbar etib tayinlanadi. Bu Komiljon Otaniyozovga berilgan katta ishonch edi. Chunki, ansamblida ustozlardan Hojixon Boltaev va Madrahim Sheroziylar faoliyat olib borib, barcha repertuar ustozlar tomonidan tayyorlanardi. Mumtoz musiqaning ansambl ijrosida xalqqa manzur qilishda ustozlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Ularning ta'siri esa, yosh san'atkorlarning merosni o'rganish borasida, faoliyatlarida katta maktab vazifasini o'tar edi. Komiljon Otaniyozov bundan foydalanib musiqiy merosni birgalikda o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Maqomlarni yuksak darajada ijro etish yo'llarini o'zlashtiradi. Shunga bir misol — Xorazm maqomlaridagi "Dugoh" maqomini turli ijro yo'li mavjud. Shulardan bir yo'li "Xorazm chorgohi" Hofiz Sheroziyning forsha g'azali bilan ijro etilib kelingan. Bu asar namunasini Komiljon Otaniyozov o'ziga xos ohanglarda ijro etib ustozlar nazariga tushadi. Shu bilan birga u ansamblga endi o'zini namoyon etib kelayotgan qobiyatli yoshlarni jalb etadi. Ularning ijro mahoratlariga loyiq repertuar tanlash va o'zlashtirishlariga ham o'zi rahnamolik qiladi. Yoshlarga ustoz san'atkorlar tomonidan azaldan amaliyotda ijro etib kelingan an'anaviy musiqa namunalari o'rgatishda, ustoz san'atkorlar Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hojixon Boltaev, Vahobjon Fayozov, Bola baxshi, Urazgul G'oipova, Rajabbibi Boyjonova, Onabibi Ochilovalarning bilim va tajribalaridan keng foydalanadi.

Ushbu xalq ansamblida Komiljon Otaniyozov, Xorazmning zabardast ustozlari bilan yelkama-elka O'zbekistonning barcha viloyatlarida gastrol kontsertlarini o'tkazadilar. Xorazm musiqasining eng jozibali namunalari elga manzur qiladigan darajada ijro etib respublikamiz xalqi oldida namoyish etishga muvaffaq bo'ladilar. Ansamblning ushbu kontsert safari uzoq davom etadi. Uning yakunida ansamblning o'n bita sozanda va xonandalari respublikamizning faxriy unvonlari bilan taqtsirlanadilar. Komiljon Otaniyozov esa, "O'zbekiston xalq artisti" degan faxriy unvonni olishga muvaffaq bo'ladi.

Komiljon Otaniyozov mana shu kontsert gastrol safarlari davrida Fargona-Toshkent ijrochilik maktablarida dong taratgan ustoz san'atkorlar bilan yaqindan tanishdi. Ularning ijro uslublaridan boxabar bo'lsada, yaqindan muloqot kilishga muvaffaq bo'ladi. Bunday davomiy suhbatlar, ijodiy hamkorliklar uning ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Fargona vodiysi ijrochilik an'alariga xos bo'lgan talqinning muhim jihatlarini o'z ijodida qo'llashga harakat qildi. "Bayot", "Ushshoq", "Chorgoh" va "Dugoh" kabi Farg'ona vodiysida keng ommalashgan



mumtoz klassik ashulalarni tez orada o'rgandi. Ularni o'zlashtirishda zamonasining mohir san'atkorlari Mulla To'ychi hofiz, Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzokov va Akbar qori Haydarov kabi ustoz hofizlarning saboqlariga tayandi, ulardan astoydil o'rganishga muvaffaq bo'ldi.

Komiljon Otaniyozov musiqa sohasidagi bilimlarini mustahkamlash va professional ta'lim olish maqsadida 1951-1955 yillar davomida o'z hamkasblari keyinchalik o'z ijodi va faoliyati bilan Xorazm musiqa san'atining dargalariga aylangan Matniyoz Yusupov, Abdusharif Otajonov, Sulton Hayitboevlar bilan birgalikda Toshkent davlat musiqa bilim yurtida tahsil oladi. Komiljon Otaniyozovning hayotida bilim yurtida saboq olganligi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, ustoz musiqa ijodi bilan shugullanar ekan, musiqa ijodiyotining barcha yo'nalishlariga befarq bo'lmagan. Ijodini xalq musiqalariga yangi so'z moslash bilan boshlagan bo'lsa, tez orada xalq kuylariga turli so'zlarni tanlab moslashtirish, so'zlarga musiqa tanlash va bog'lashni maromida bajaradi. Uning, ansambl ishtirokchilarining ovozlari, ijro xarakterlariga mos holda kuy bastalashi va doston yo'llarini moslashtirishlari bastakorlik qobiliyatining naqadar kuchli ekanligini ko'rsatadi. Musiqa bilim yurtidagi ta'lim davrida ustoz, bastakorlikning amallarini qunt bilan egallaydi.

Komiljon Otaniyozov 50-yillardan boshlab chet el kontsert gastrollarida bo'lib, o'zbek musiqa merosini dunyo xalqlariga targ'ib etgan.

- U Hindiston, Eron, Birma, Afg'oniston davlatlarida ijodiy safarlarda bo'ladi. Ijodiy safarlar Komiljon ustozning bastakorlik ijodida ham rang-barang asarlar yaratilishiga sabab bo'ladi. "Salom hind xalqiga!", "Muborak", "Salom senga Xorazmdan", "Olqish", "Aziz Vatanim" kabi qo'shiqlar shular jumlasidandir.

Mumtoz musiqa ijrochiligi, musiqiy merosga bo'lgan munosabat

Komiljon Otaniyozov ijodining eng ibratli tomonlarini tashkil etadi. U qaysi mumtoz musiqa namunasini qaysi bir ustozdan o'rganmasin, o'sha ustoz uslubini saqlab kolishga katta ahamiyat beradi. Jumladan, Jumaloq baxshi va Bola baxshi Abdullaev ijro uslubidagi dostonlar ijrosi, Hojixon Boltaevning ijro uslubidagi vazminlik, bardavom ohanglar tarannumi barcha-barchasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ustozlardan Komiljon Otaniyozov Xorazm suvora yo'llarini qunt bilan o'zlashtiradi. Buning negizida o'zining barcha mahoratini ko'rsata oladigan o'z "Suvora"sini yaratishga muyassar bo'ladi. Bu asar amaliyotda "Suvorai Komil" nomi bilan xapqimiz qapbida muhrlandi, musiqa merosidan joy oldi.

Komiljon Otaniyozov musiqa ijodkorligi soxasida 1000 dan ortiq kuy va qo'shiqpar yaratgan. Turli mavzularga bag'ishlangan uning bastakorlik mahsuli juda keng va rang-barangdir. Ustoz san'atkor ijodi davomida taniqqi san'atkorlar va bastakorlar (Sulton Hayitboev, Abdusharif Otajonov kabi) bilan yaqindan faoliyat olib borganligi negizida sahnaviy asarlar yaratishga ham muyassar bo'lgan. Jumladan, "Aziz va Sanam" (1955), "Oshiq G'arib va Shohsanam" (1957), "So'nggi xon" (Sulton Hayitboev bilan hamkorlikda) kabi sahna asarlariga kuylar bastalagan. Sahnaviy asarlarida xalq dostonlariga xos ohanglarga tayanilganligi yaqqol ko'rinadi. Chunki, ustoz san'atkor asarlardagi voqeliklarni va obrazlarni ifoda etishda ularni ichki dunyosini yorqin yaratib beradigan ohanglardan foydalanadi, xalq qo'shiqlarini ustalik bilan ishlatadi.

Uning klassik shoirlar ijodiga bo'lgan munosabati beqiyos edi. Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Navoiy, Ogahiy, Mashrab, Fuzuliy she'r va gazaplari, Maxtumquli, Kamina va Mullanafasning



hikmatlariga bastalagan qo'shiklari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ustozning shoirlikda tebratgan qalami xam adabiyot namoyandalari orasida o'zining o'tkirfikrliligi bilan ajralib turadi. Avvaliga "Komiy" keyinchalik "Komil" taxallusida she'rlar bitgan.

Bul voyaga yetkazgan, rahmatim ko'p vatanga,
Minnatdorlik bildiray, xalqimga, do'stlarimga,
Yetim edim asrading, ulgaydim gani bo'ldim,
Ilmu hunarlar berdi, baxtli davronim mening.
Mehnatim ko'p yoshlikda, podachilik kasbinda,
Mehnat evazi hurmat davlatim berdi menga.
Maktab ochib ko'zimni, ustozlar tgin tutdim,
Ma'rifatni o'rgatdi, rahnamo bo'ldi menga.
Ustozlarimni desam, Abdukarim, Matpano,
To'ychi hofiz, Sheroziy, Yunus aka pir menga.
To'xtasinu Halima, Karim Zokir, Mukarram,
Bola baxshi, Lutfixon, Zuhrlar ustoz menga.
Otaullo eshonu, Hojixonu Jo'raxon,
Ma'mur hofiz, Matkarim, Akbar sori fan menga.
Mandan oldin kim kelsa, go'zal san'at ichinda,
Barchasini pesh tutdim, bo'ldi hodiroh menga.
Baxtimni ochgan edim, do'stlarim bor mard belim,
Komt huquq ong berdi, baxtli zamonim menga.

Komiljon Otaniyozov 1967 yilgacha qadrdon jamoasi, ya'ni ansambl bilan birgalikda xalqimizga beminnat xizmat qildi, 1967 yili betobligi sababli ansamblga raxbarlik qilishni to'xtatadi. Lekin xalq xizmatini davom ettiradi. 1968 yili Komiljon Otaniyozov ko'rsatgan xizmatlari uchun

"Qoraqalpog'iston xalq artisti" unvoni bilan taqtsirlandi. Komiljon Otaniyozov bundan ilhomlanib o'zining "Uch gulistondan salom" ko'shig'ini bastalaydi va betakror ohangda kuylaydi.

Komiljon Otaniyozov o'zbek musiqa san'atida, sozanda va xonandalikda benazir ustoz darajasiga yetgan buyuk san'atkordir. O'zining qisqa, lekin mazmunli kechgan hayotida betakror va beqiyos meros qoldirishga ulgurdi. Bu meros nafaqat musiqa ijrochiligida, balki ijodiyotida ham o'z o'rnini topdi va avlodlarga xizmat qilib kelmokda. Ayniqsa, ijrochilik masalasida tarbiyalagan, uning ketidan ergashgan shogirdlarining sanogi yo'q. Kommuna Ismoilova, Otajon Xudoyshekurov, Sharif Sultonov, Olmaxon Hayitova bu ro'yxatni ko'p davom ettirish mumkin. Uning ustozli1i ijroda mukammalligi, mehribon-jonkuyarligi, ibratli darajada oliyhimmatligi, yoshlarga mehribonligi, san'atda zabardastligida o'z aksini topgan. San'atkorning umri qisqa bo'lishi mumkin, lekip uning mazmuni ijodining umrboqiyligini ta'minlaydi. Komiljon Ogapiyozovning hayoti, faoliyati va ijodi ana shunday mazmunli, ibratli va samarali ekanligiga shubha yo'q. Bunga uning ijrochilik, bastakorlik, shoirlik va ustozlik merosi dalildir. Komiljon Otaniyozov ayni ijodining kamol topgan pallasida 1975 yilning 5 noyabrida, 58 yoshida Toshkent shahrida vafot etadi.



References:

1. "Komiljon Otaniyozov abadiyati" – B.Rahimov "Xorazm-MCHJ". 2017
2. "Soʻz va Soz sohibi" – S.Xudayberganov "Ilm-ziyo" nashriyoti. 2014
3. "Oʻzbek eli Komiljondan ayrilmas" – Sh.Qilichev, R.Nur, B.Roʻzimuhammad "Istiqlol nuri" 2019.
4. "Komiljon Otaniyozov" – F.Zohid. 2003.
5. "OʻzME" birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.